QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

SHOXRUH MIRZO HUKMRONLIGIDA SAN’ATNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.101

Aniq va Ijtimoiy fanlar institutining “Tarix” fakulteti,
tarix yo‘nalishi 2-kurs magistr talabasi
Jamilovn Jasurbek Habib o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shoxruh Mirzo hukmronligi davri O‘zbek madaniyati va san’ati tarixida o‘ziga xos, muhim davr hisoblanadi. Bu davrda san’at sohasida ko‘plab yangiliklar yuzaga kelgan, ijodiy jarayonlar yangi yo‘nalishlar bilan boyigan. Shoxruh Mirzo o‘z hukmronligi davomida san’atkorlarga katta e’tibor qaratgan, ularning ijodini qo‘llab-quvvatlash orqali madaniyat va badiiy ijodning rivojlanishiga turtki bergan. Uning hukmronligida san’at ko‘p qirralilik kasb etgan; musiqa, adabiyot va tasviriy san’at sohalarida o‘ziga xos uslub va estetik tamoyillar shakllangan. Shoxruh Mirzo davrida ijodkorlar yangi mavzularni o‘rganish va xalq hayotining turli qirralarini san’atda ifodalash imkoniga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, adabiy asarlar va badiiy ijod nafaqat estetik zavq bag‘ishlagan, balki jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy masalalarni yoritishga ham xizmat qilgan.

Shoxruh Mirzo hukmronligi davridagi san’atning yana bir o‘ziga xos jihati – uning xalq madaniyati bilan uyg‘unligi. San’at asarlari oddiy odamlarning hayotini, urf-odatlarini, mehnat va ma’naviy qadriyatlarini aks ettirgan. Bu davr san’ati nafaqat badiiy ifoda, balki tarixiy va madaniy meros sifatida ham ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: Shoxruh Mirzo, o‘zbek madaniyati, badiiy ijod, musiqa, adabiyot, tasviriy san’at, xalq madaniyati, estetik tamoyillar, tarixiy meros, ijtimoiy masalalar, “Oltin davr” ma’naviy qadriyatlar.

Abstract: The period of Shahrukh Mirza’s rule represents a distinctive and significant era in the history of Uzbek culture and art. During this time, many innovations emerged in the field of art, and the creative process was enriched with new directions. Shahrukh Mirza paid great attention to artists during his reign, and by supporting their work, he encouraged the development of culture and artistic creativity. Under his rule, the arts became multifaceted; music, literature, and visual arts developed unique styles and aesthetic principles.

In Shahrukh Mirza’s era, artists had the opportunity to explore new themes and express various aspects of people’s lives through art. At the same time, literary works and artistic creations not only provided aesthetic pleasure but also served to highlight social, political, and spiritual issues in society. Another distinctive feature of the arts during Shahrukh Mirza’s

reign was their harmony with folk culture. Artworks reflected the lives of ordinary people, their customs, labor, and spiritual values. The art of this period was significant not only as a form of artistic expression but also as a historical and cultural heritage.

Аннотация: Период правления Шахруха Мирзы представляет собой особую и значимую эпоху в истории узбекской культуры и искусства. В это время в сфере искусства возникло множество новшеств, а творческий процесс обогатился новыми направлениями. Шахрух Мирза уделял большое внимание художникам и, поддерживая их творчество, способствовал развитию культуры и художественного мастерства. При его правлении искусство стало многогранным; музыка, литература и изобразительное искусство приобрели уникальные стили и эстетические принципы.

В эпоху Шахруха Мирзы у творцов появилась возможность исследовать новые темы и отражать различные аспекты жизни народа в искусстве. При этом литературные произведения и художественные работы не только доставляли эстетическое удовольствие, но и служили освещению социальных, политических и духовных проблем общества. Еще одной особенностью искусства в период правления Шахруха Мирзы была его гармония с народной культурой. Произведения искусства отражали жизнь обычных людей, их обычаи, труд и духовные ценности. Искусство этого периода имело значение не только как форма художественного выражения, но и как историческое и культурное наследие.

Kirish: Shohruh Mirzo (1405-1447) hukmronligi davri temuriylar san'ati va madaniyatining “Oltin davri” hisoblanib, Xirot poytaxt sifatida yuksak san'at markaziga aylandi. Bu davrda tasviriy san'at (miniatyura), xattotlik, me'morchilik va kitobat san’ati Gavharshodbegim homiyligida rivojlandi. Asosiy xususiyatlar: tasviriy san'atda realizmning kuchayishi, nafislik, murakkab kompozitsiyalar va naqshinkorlikning ustuvorligi.

Asosiy qism: Shohruh Mirzo davri san’atining o’ziga xos xususiyatlari: Shohruh va uning o’g’li Boysung’ur Mirzo boshchiligida Xirotda miniatyura maktabi shakllandi. Rassomlar (masalan, Amir Xalil) obrazlarga jonli tus berish, yorqin ranglardan foydalanish va syujetning realistik ifodasiga alohida e’tibor qaratishdi. Boysung’ur kutubxonasida (“Kitobxona”) qo’lyozmalarni ko’chirish va bezash yuksak darajaga ko’tarildi. Nastaliq xati rivojlandi va kitoblar oltin suvi bilan bezatildi. Gavharshodbegimning tashabbusi bilan Xirot va Mashhadda yuksak mahorat bilan bunyod etilgan masjidlar, madrasalar va maqbaralar, xususan, nafis koshinkorlik san’ati bilan ajralib turadi[14].

Shohruh saroyida she’riyat va rassomlik chambarchas bog’liq bo’lib, tasvirlar ko’pincha klassik adabiy asarlar (shohnomalar, dostonlar) asosida yaratilgan. Kulolchilik, zargarlik, va

[14]https://www.google.com/search?q=Shoxruh+Mirzo+hukmronligida+san%E2%80%99atning+o%E2%80%98ziga+xos+xususiyatlari&oq

mato to’qish (shoyi, ipak) san’ati ham rivojlanib, nafis bezaklar bilan ajralib turadigan buyumlar tayyorlangan.



Shohrux Mirzo ma’rifatparvar va ilm-fan hamda madaniyatga katta e’tibor qaratgan hukmdor edi. Uning saroyida mashhur olimlar, shoirlar va san’atkorlar faoliyat yuritgan. U o‘z davrining eng ilg‘or ziyolilarini qo‘llab-quvvatlab, ularning ilmiy va ijodiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratib bergan. Shohrux Mirzoning homiyligi astronomiya, matematika, tibbiyot, falsafa va boshqa fanlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Temuriylar davrida Samarqand va Hirot shaharlari ilm-fan va madaniyat markazlariga aylangan. Bu yutuqlar hukmdorlarning ilm-ma’rifatni rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosati natijasi edi. Amir Temur ham olimlarga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. U zabt etgan har bir yurtidan ilm ahlini izlab topib, ularni Samarqandga taklif etgan. Olimlar uchun masjidlar, madrasalar va kutubxonalar qurdirgan. Sohibqironning o‘zi ham keng tafakkur sohibi bo‘lib, olimlar bilan ilmiy munozara va bahslarda faol ishtirok etgan[15].

Shohrux Mirzo hukmronligi davrida ham otasi singari olim va hunarmandlarga yuksak ehtirom ko‘rsatilgan, turli hududlardan ilm ahli Hirotga jamlangan. U turli fan sohalarini chuqur o‘rgangan hamda olimlar, adiblar, shoirlar va san’atkorlarni doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlagan. Natijada Hirot kutubxonalari noyob va qimmatli ilmiy asarlar bilan boyigan. Shahar nodir qo‘lyozmalarga boy kutubxonalari bilan alohida ajralib turgan.

Shohrux Mirzo ilm-fanga, ayniqsa diniy va tarixiy bilimlarga katta e’tibor qaratgan hukmdor edi. Uning saroyida xizmat qilgan mashhur tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy Shohruxni ***“asrning yangilovchisi”*** deya ta’riflab, uning hadis, fiqh va tarixga oid ko‘plab asarlarni chuqur o‘rganganini ta’kidlaydi[16]. Bu hol Shohrux Mirzoning nafaqat siyosiy, balki ilmiy-ma’rifiy faoliyatga ham jiddiy yondashganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davrida turkiy adabiyot ham jadal rivojlandi. Garchi bu davrda yashab ijod



15

16 – Cambridge, 2007. – P. 40.

qilgan shoirlar haqida ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, mashhur shoirlardan biri *Amir Haji Sayfiddin Nukuz* bo‘lib, u *Sayfiy* taxallusi bilan tanilgan[17]. U Amir Temur va Shohrux Mirzo davrida davlat xizmatida bo‘lgan hamda forsiy va turkiy tillarda ijod qilgan. Davlatshoh Samarqandiy o‘z asarlarida uni turkiy shoir sifatida tilga oladi. Shuningdek, turkiy tilda ijod qilgan *Sakkokiy va Sayyid Ahmad Mirzo* kabi shoirlarning yetishib chiqishi, hamda ***“Merojnoma”, Qutadg’u bilig, Tazkirat ul-avliyo*** va ***Hibat ul-haqoyiq*** kabi turkiy adabiyotning nodir namunalari uyg‘ur yozuvida bitilgani saroyda ilm-fan va turkiy tilga katta ahamiyat berilganidan dalolat beradi[18].

Shohrux Mirzo hukmronligi davrida uning o‘g‘li Boysunqur Mirzo ham ilmiy-madaniy faoliyatga katta hissa qo‘shgan. U Bog‘i Safid saroyini yirik kutubxonaga aylantirgan. XV asrning birinchi yarmida, ayniqsa Hirot shahrida tasviriy san’at, xususan, miniatyura san’ati ravnaq topdi. Bu davrda shakllangan Hirot maktabi islom olamidagi eng taraqqiy etgan badiiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. 1420–1430-yillarda Shohrux Mirzo saroyida kitobat va qo‘lyozma tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi yirik ustaxona — saroy kutubxonasi tashkil etildi. Bu maskan qo‘lyozma asarlar yaratish markaziga aylanib, bu yerda musavvirlar, xattotlar, naqqoshlar, muzahhiblar (kitob bezakchilari) va boshqa mohir hunarmandlar jam bo‘lgan[19]. Natijada Temuriylar davrida ilm-fan va san’at yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan.

Shohrux Mirzo hukmronligi davrida mo‘g‘ullarning “Yaso” qonunlari bekor qilinib, ularning o‘rniga islom shariati joriy etildi. Bu islohot keyingi temuriy hukmdorlar — Abu Sa'id Mirza va Husayn Bayqara tomonidan ham davom ettirildi. Natijada davlat boshqaruvida islomiy huquqiy me’yorlar mustahkam o‘rin egalladi.

Shohrux Mirzo yaratgan ilmiy va ma’naviy muhit tufayli davrning eng yetuk olimlari saroy atrofiga jam bo‘ldilar. Ular orasida mashhur diniy arbob *Ibn al-Jazari* ***(Shayx ul-islom al-Jazari)*** alohida o‘rin tutadi. U hadis ilmi bo‘yicha chuqur bilim sohibi bo‘lib, uning *“Kitobi*



[17] Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan). Fors-tojik tilidan Bo‘riboy Ahmedov tarjimasi. She’rlarni Sulaymon Rahmon tarjima qilgan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 33.

[18] Yusuf Ziya Söylemez. Timurlular Döneminde Herat. Doktora Tezi. Malatya. 2023. – S. 251.

[19] https://uz.wikipedia.org/wiki/Hirot_miniatyura_maktabi

bidayat dar mustalahoti ilmi hadith” asari o‘z zamonasining eng muhim ilmiy manbalaridan biri sanalgan[20]. 1428-yilda yakunlangan ushbu asar zamondoshlari tomonidan nihoyatda yuqori baholanib, “bu dunyoda bunday kitob ko‘rilmagan va bunday asar eshitilmagan” deya e’tirof etilgan. Shayx ul-islom al-Jazarining ilmiy salohiyati va obro‘sini tasdiqlovchi yana bir voqea — *“Sahihayn*”, ya’ni Imom Buxoriy va Imom Muslim to‘plamlaridan imtihon olish jarayonining uning huzurida o‘tkazilganidir. Bu esa uning nafaqat chuqur bilim sohibi, balki o‘z davrining eng nufuzli ulamolaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Shohrux Mirzo davrida hadis va fiqh ilmi sohasida faoliyat yuritgan boshqa yirik allomalar — *Shayx Ali Kalon, Saydi Ahmad Kabir, Shayx Abu Ishoq* va Ruknuddin Muhammad kabi zotlar ham alohida e’tiborga loyiqdir[21].

Bu davrning yana bir mashhur olimi Xoja Ali Isfahoniy bo‘lib, u o‘z zamonasining eng bilimdon va yetuk ilm namoyandalaridan biri sifatida tanilgan. U 1432-yil 12-avgustda Hirotda vafot etgan. Isfahoniy arab va fors tillarida asarlar yozgan bo‘lib, “Sharhi Fusus al-hikam”, “Kitobi Mafohis” hamda “Sharhi Qasidai Ibn Fariz” kabi asarlari chuqur ilmiy mazmuni va yuksak badiiy uslubi bilan ajralib turadi[22]. Tarixning oltin sahifalarini ishonchli tiklash aynan ana shunday yozma manbalar va tarixiy asarlar orqali amalga oshiriladi. Shohrux Mirzo davrida yaratilgan ilmiy, diniy va tarixiy asarlar bugungi kunda ham muhim manba sifatida qadrlanadi.

Jumladan, mashhur tarixchi Sharafuddin Ali Yazdi tomonidan yozilgan Zafarnama ana shunday bebaho asarlardandir. Shuningdek, tarix sahifalarini yoritgan olimlar qatorida Shamsuddin Xojarmi va Qutbuddin Ahmad al-Imadi kabi tarixchilar ham muhim o‘rin egallaydi. Temuriylar davriga oid manbalarda, jumladan Sayyid Sharifning *“Sharh-i mutolaa”* asariga yozilgan tarixiy hoshiyalarda saroy ichidagi ixtilof va ziddiyatlar ochiq yoritilgan. Bu hol o‘sha davr siyosiy hayotining murakkab va ziddiyatli jihatlarini ko‘rsatadi[23].



Abdurazzoq Samarqandiy yigirma besh yoshida “Sharhi risola” nomli asarini yozib, Shohrux Mirzoning e’tiborini qozonishga muvaffaq bo‘lgan. Mazkur asar xoqonning humoyun laqablari bilan bezatilgan. Muallif o‘z asari haqida shunday deydi: “Bu shunday risolaki, uning ma’nolarining mukammalligi, dalillarining kuchliligi hamda go‘zal va nozik uslubi jihatidan unga teng keladigan asarni hech kim

[20] Буриев О. О границах семи климатов в “Зидже Гурагани” Улугбека и на карте мира Хафизи Абру / Из истории науки эпохи Улугбека. – С. 192- 194

[21] Улжаева Ш. XX асрнинг 50-60 йилларида Амир Темур ва темурийлар даври тарихшунослиги (Шўро адабиётлари мисолида). Тарих фан. ном… дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 33-34.

[22] Абдураззок Самаркандий. Матлаи саъдайн ва мажмаъи бахрайн /Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳли луғатлар муаллифи Ўринбоев А. – Тошкент: Фан, 1969. – Б.66

[23] Togan Z.V. Umumi Turk tarihine giris. – Istanbul, 1981. – S. 365

ko‘rmagan va eshitmagan[24].”

“Sharhi risola” Qozi Azduddinning Risolayi Azudiya asariga yozilgan sharh bo‘lib, unda “Risolayi Azudiya”dagi harf va nomlarning ma’nolari keng izohlangan. Asar foydali mulohazalar va qimmatli ilmiy xulosalar bilan boyitilgan bo‘lib, o‘z davrining yetuk ilmiy tadqiqotlaridan biri sanaladi. Shohrux Mirzo hukmronligi davrida noyob asarlarga boy yirik kutubxona faoliyat ko‘rsatgan. Bu kutubxonaning shuhrati butun dunyoga yoyilgan edi. Unda o‘z zamonasining eng nodir va qimmatli qo‘lyozmalari saqlangan hamda ilm ahli uchun muhim manba vazifasini o‘tagan.

Xulosa qilib aytganda, Shohrux Mirzoning uzoq yillik hukmronligi davrida mamlakatning ayrim ilmiy-madaniy markazlarida fan, madaniyat va san’at sohalarida sezilarli taraqqiyot kuzatildi. Uning ilm-fan va ma’rifatni qo‘llab-quvvatlash siyosati natijasida Temuriylar davri Sharq uyg‘onishining muhim bosqichlaridan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.https://www.google.com/search?q=Shoxruh+Mirzo+hukmronligida+san%E2%80%99atning+o%E2%80%98ziga+xos+xususiyatlari&oq

2.Аҳмедов Б.А. Улуғбек. – Тошкент: Фан, 1965. – Б. 9.

3. Manz B. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. – Cambridge, 2007. – P. 40.

4. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan). Fors-tojik tilidan Bo‘riboy Ahmedov tarjimasi. She’rlarni Sulaymon Rahmon tarjima qilgan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B. 33.

5. Yusuf Ziya Söylemez. Timurlular Döneminde Herat. Doktora Tezi. Malatya. 2023. – S. 251.

6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Hirot_miniatyura_maktabi

7. Буриев О. О границах семи климатов в “Зидже Гурагани” Улугбека и на карте мира Хафизи Абру / Из истории науки эпохи Улугбека. – С. 192- 194.

8.Улжаева Ш. XX асрнинг 50-60 йилларида Амир Темур ва темурийлар даври тарихшунослиги (Шўро адабиётлари мисолида). Тарих фан. ном…дисс. – Тошкент, 1999.– Б. 33-34.

9. Абдураззок Самаркандий. Матлаи саъдайн ва мажмаъи бахрайн /Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳли луғатлар муаллифи Ўринбоев А. – Тошкент: Фан, 1969. – Б.66.

10. Togan Z.V. Umumi Turk tarihine giris. – Istanbul, 1981. – S. 365. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 51

11. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент, 1997. – Б. 59.

[24] Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент, 1997. – Б. 59.